

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### ARAB TILIDA YOZUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA

#### YONDASHUV VA METODLAR

Radjabova Muxtasar Davranbekovna

O'zDJTU 1- bosqich tayanch doktoranti

#### Annotation

Mazkur maqola arab tilida yozuv ko'nikmasini shakllantirishda yondashuv va metodlar tasnifiga bag'ishlangan. Shuningdek, arab tilida yozuv ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda integrativ yondashuv alohida ahamiyatga ega ekanligiga urg'u qaratilib, unda olimlarning integratsiya va integrativ yondashuv tushunchalariga bergen ta'riflari keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** arab tili, yozuv ko'nikmasi, yondashuv, metod, integratsiya, integrativ yondashuv.

#### Аннотация

Данная статья посвящена классификации подходов и методов формирования навыков письма на арабском языке. Также подчеркивается, что интегративный подход имеет особое значение в формировании и развитии навыков письма на арабском языке, и даются определения ученых понятиям интеграции и интегративного подхода.

**Ключевые слова:** арабский язык, навыки письма, подход, метод, интеграция, интегративный подход.

#### Abstract

This article is devoted to the classification of approaches and methods for developing writing skills in Arabic. It is also emphasized that the integrative approach is of particular importance in the formation and development of writing skills in Arabic, and definitions of scientists are given to the concepts of integration and the integrative approach.





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

**Key words:** arabic language, writing skills, approach, method, integration, integrative approach.

Til turli mamlakatlarni o‘zaro bog‘lab turgan buyuk ne’mat va kuchdir. Jahon tajribasida tillarni o‘rganishda turlicha yondashuvlardan foydalanilgan va ular muntazam ravishda takomillashtirib borilgan. Xususan, arab tilini chet tili sifatida o‘rganishda yondashuv va metodlar masalasi hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda .

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida aynan yozuvni o‘rgatishda ham turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, ko‘pgina tadqiqotchilar (A.Raimes, D.Byrne va boshqalar) yozuvni o‘rgatishda 3 ta asosiy, product-based approach (mahsulotga asoslangan yondashuv), process-based approach (jarayonga asoslangan yondashuv) va integrated approach(integrativ yondashuv)larni ajratib ko‘rsatadilar.<sup>1</sup>

Y.N.Solovova yozuvni o‘rgatishda uchta yondashuvni quyidagicha tasniflagan:

1. Direktiv (rasmiy)yondashuv.Qo‘yilgan maqsad bexato yozish, mazmun esa ikkinchi darajaga o‘tadi.
- 2.Lingvistik yondashuv. Bu yondashuv yozma nutq jarayonini qat’iy nazorat qilish va ko‘plab retseptiv-reproduktiv mashqlar bilan tavsiflanadi.
3. Ijodiy yondashuv. Yondashuvning maqsadi talabalarning individual ijodiga asoslangan matn yaratishdir.<sup>-2</sup>

Arabshunos olim Antonella Chersetti o‘z tadqiqotida arab tilini o‘rgatishdagi yondashuv va metodlarni xronologik tartibda keltiradi:

- طريقة مباشرة (To‘g‘ri metod)
- طريقة النحو والترجمة (Grammatik-tarjima metodi)
- طريقة صوتية (Fonetik metod)
- طريقة كلية (Yaxlit so‘zlar metodi yoki global metod)
- طريقة سمعية شفوية (Audio-og‘zaki metod)
- طريقة حيكلية كلية سمعية بشرية (tizimli global audiovizual metod)

<sup>1</sup> Тарасов. А.А. Формирование компетентностной основы иноязычной продуктивной письменной речи в начальной школе. Автореф. Москва-2021.-24с

<sup>2</sup> Штанько. Е.В.Совершенствование умений и навыков письменный речи у студентов изучающих английский язык. «Мододой учёный» №12(71) август-1 2014-г С. 314-318



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- طريقة معاهد برقيبة (Burgib maktab metodi)
- طريقة انتقائية (Eklektik metod)
- طريقة التواصل (Kommunikativ metod)
- الأسلوب المتمرّك حول المتعلم (Shaxsga yo'naltirilgan metod)<sup>3</sup>

Tillarni o'rganishga turlicha yondashish masalasi hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Ta'limda u yoki bu yondashuvni tanlash boshqa yondashuvlarni butunlay mos emasligini anglatmaydi, balki bu ta'lim maqsadlariga bog'liq bo'lib, urg'u yanada samarali natijaga qaratilishi nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, arab tilida yozuv va yozma nutqni o'qitishda yuqorida keltirilgan yondashuvlardan ongli yondashuv, kommunikativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ijodiy yondashuv va integrativ yondashuvalar muhim hisoblanadi. Aynan shu yondashuvlardan nutq faoliyatining barcha turlarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, ham produktiv ham retseptiv til ko'nikmlarini kompleks o'rgatishga qaratilgan integrativ yondashuv arab tilida yozuv ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

"Integratsiya" so'zi lotincha, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tiklash, to'ldirish ma'nolarini ham anglatadi. "Integratsiya" atamasiga qator ta'riflar mavjud. Masalan, N.Poddjakova integratsiyani bir nechta o'quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usuli deb ta'riflaydi.<sup>4</sup>

M.X. Gulyamova integratsiyaga shunday ta'rif beradi: "Integratsiya bu turli fanlar asosida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirish hamda nutq faoliyati turlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda va aloqadorlikda kompleks rivojlantirishdir".

"Integratsiya" tushunchasining ta'riflarini umumiylah tahlili, bu tushunchani ikki tomonlama tabiatga ega bo'lgan hamda jarayon va natija sifatida paydo bo'ladigan hodisa ekanligini ko'rsatdi. Integratsiya o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir bilan tavsiflangan yaxlitlik holati, integratsiya ilgari tabaqalashtirilgan elementlarning bir butunga birlashishi, integratsiya yaxlitlikning yangi sifat va potentsial

<sup>3</sup> A. Chersetti. Teaching arabic as a foreign language.Ciclo 29. Anno di discussion 2017.

<sup>4</sup> Xasanova Sh.B. "Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi/Disser.ped.fan.n. -Toshkent -2019



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

imkoniyatlariga, shuningdek elementlarning o‘ziga xos xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladi.<sup>5</sup>

So‘nggi yillarda integratsiya so‘zi bilan integrativ yondashuv birikmasi ham keng qo‘llanib kelinmoqda. Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikmalar va tajribalarni hisobga olish, tayanish ,birlashtirish va kompetensiyalarni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi. M.N.Berulova, D.I.Zverev, G.F.Fedoretslar integratsiya jarayonlarini o‘rganar ekan, ta’limga integrativ yondashuv turli o‘quv fanlari mavzulari o‘rtasida intensiv ma'lumotlar almashinuvini ta’minlashini ta’kidlab o‘tadilar.<sup>6</sup>

Bizningcha, arab tilida yozuv ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda aynan yozuvni boshqa nutq faoliyati turlari bilan integratsiyalash, o‘z navbatida talabalarni yozuv texnikasini mukammal egallashlari hamda arab tilida fikrlarni yozma bayon etish jarayonida mustaqil fikrlab, ijodiy yondashishlariga yordam beradi.

Bo‘lajak arab tili mutaxasislari uchun arab yozushi hamda yozma nutq malakasiga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega .Yozma nutq arab tilida leksik va grammatik materiallarni hamda nutq faoliyatining boshqa turlarini egallahda asos bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek, boshlang‘ch bosqichda talabalarda yozuv ko‘nikmasini gapirish, tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalaridan ajragan holda shakllantirib bo‘lmaydi. Shuning uchun gapirish, tinglab tushunish, o‘qishni o‘rgatish jarayonida yozish texnikasi va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimi zarurdir.

Olimlarning yozuv ko‘nikmasini boshqa nutq faoliyati turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida talaygina fikrlari mavjud. “Umumiyl metodika asoslari” kitobining mualliflari Demyanenko va Lazerenkolar yozuv ko‘nikmasini o‘qish ko‘nikmasi bilan bir xil kommunikativ kodga asoslangani sababli bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tadilar.<sup>7</sup> Arabshunos olim Nur Hafizan arab tilida yozuvga o‘rgatish

<sup>5</sup> Левченко В.В. Интегрированный подход к профессионально -педагогической подготовке в вузе специалистов для образовательных учреждений. Диссер, доктор.пед н. Самара-2009

<sup>6</sup> Берулава М.Н. Иттеграция содержания оброзования.-М:Совершенство,1998, -192с

<sup>7</sup> Зекри Мунир. Методика обучения письменной речи в проблеме контроля уровня ее сформированности на занятиях по русскому языку в условиях арабской языковой среды. Диссер.-Москва 1985. 150 с



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmasi shakllangandan so‘ng boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Olimning ushbu fikrini arab tilshunosi Fatima Samah ham qo‘llab quvvatlaydi va o‘quvchilarda yozma nutqni rivojlanishi uchun ularda nafaqat o‘qish balki o‘qib tushunish ko‘nikmasi shakllanishi zarurligi haqida o‘z tadqiqotida yozadi.<sup>8</sup>

B.V.Bellev shunday fikr bildiradi: "Yozma nutq og‘zaki nutqsiz mavjud bo‘lmaydi, odam yozganda, u doimo nima yozganini o‘ziga aytadi. Bundan tashqari, og‘zaki nutqni rivojlantirish boshidanoq ko‘p jihatdan yozma nutqni rivojlantirish vazifalariga muvofiq shakllanadi." Arabshunos olim I.Ibragimov esa yozuv va tinglab tushunish ko‘nikmali o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha izohlaydi: "Arab tilini o‘rgatishda tinglab tushunishning asosiy mexanizmlaridan eshitish muhim ahamiyatga ega. Tinglab tushunish yozish ko‘nikmasini rivojlanishida asos hisoblanadi. Sababi tinglab- tushunishni shakllantirmasdan turib, so‘zni tovushlarga to‘g‘ri ajratish yoki tovushlarni harflar bilan belgilash mumkin emas, ya’ni ongli yozish harakati amalga oshirilmaydi."<sup>9</sup>

Yuqoridagi fikrlarning barchasi yozuv ko‘nikmasini shakllantirish boshqa nutq faoliyati turlari bilan bevosita bog‘liq ekanligiga ishora qilmoqda . Shu sababli arab tilida yozuv va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda integrativ yondashuv ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda nafaqat yozuv balki barcha nutq faoliyati turlarini teng barobar qo‘llay olish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov. M.Arab tili.O’quv qo’llanma. Global Books nashriyoti.-Toshkent.
2. Nur Hafizah Binti Abd Aziz. Disertasi diserahkan untuk memenuhi keperluan bagi uazah sarjana pengajian bahasa moden.- Kuala Lumpur.2015.
3. Зекри Мунир. Методика обучения письменной речи в проблемы контроля уровня ее сформированности на занятиях по русскому языку в условиях арабской языковой среды. -Москва 1985.

<sup>8</sup> Nur Hafizan . Pengguan imitasi Dalam Penulisan Karangan. Bahasa arab dalam kalangan Pelajar Universiti. Kualalumpur-2015 144b

<sup>9</sup> Ибрагимов И.Ж.Обучение основам владения арабским языком. Диссер, доктор.пед н. -М.2003



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. Xasanova Sh.B. "Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.-Toshkent -2019
5. Левченко В.В. Интегрированный подход к профессионально - педагогической подготовке в вузе специалистов для образовательных учреждений. Самара-2009

<b>Respublika</b>	<b>O'zbekiston</b>
<b>Viloyat, shahar</b>	<b>Toshkent shahri</b>
<b>Familiya</b>	<b>Radjabova</b>
<b>Ism</b>	<b>Muxtasar</b>
<b>Otasining ismi</b>	<b>Davranbekovna</b>
<b>Ilmiy daraja</b>	<b>doktorant</b>
<b>Ilmiy unvon</b>	-
<b>Ish joyi</b>	<b>O'zDJTU 1- bosqich tayanch doktoranti</b>
<b>Telefon raqami</b>	<b>+998998440034</b>
<b>Elektron pochta raqami</b>	<b>muxtasarradjabova1985@gmail.com</b>
<b>Yo'naliш( sho'ba)</b>	<b>1. Arab tilini o'r ganish:muammolar va yechimlar</b>
<b>Maqola mavzusi</b>	<b>Arab tilida yozuv ko'nikmasini shakllantirishda yondashuv va metodlar</b>